

## MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Shavqatulloev Do'stmuhammad

Te.π:998932214673

e-mail:ma6069054@gmail.com

Toshboltayev Zarif Shuhrat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.

Jo'ramurodov Islom Gulshanbek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.

### ANONTATSIYA

Bugungi kunda mamlakatimizda 136 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O'zbekiston hududida qadim - qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalkimizning azaliy bag'rikyengligini ko'rsatadi. Hozirgi zamonda bu goya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Diniylik dunyoviylikni inkor qilmaydi, u bilan ba'zan yonma-yon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zaro yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM), Milliy madaniyat markazlari (MMM), Bag'rikenglik, 4-moddasi, 8-modda, fashizm Foyasi, 31-modda.

Millatlararo totuvlik

Ko'p millatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi, boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi.

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi". O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 136 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Har bir millat - Yaratganning mo'jizasidir. Bu olamdagi tabiiy rang - baranglik bilan jamiyatdagi milliy o'ziga xoslik dialyektikasini ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi-umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bu g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etib, salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalk farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan ( titul ) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illat, bu - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm Foyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadim - qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalkimizning azaliy bag'rikyengligini ko'rsatadi

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

“Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'anoqqa aylanib qolmagan. Aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko'p millatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning fuqarolar jamiyati qurilishining ta'sirchan vasitasiga aylanib qolgan”. I.A.Karimov [1]

“Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar”(8-modda)[2]

Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu erda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muxitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his

etish “O‘zbekiston umumiy uyimiz” degan so‘zlar zamiridagi chuqur ma‘noni anglab olish imkonini beradi.

### **Dinlararo bag‘rikyenglik ( tolyerantlik )**

Dinlararo bag'rikyenglik g'oyasi - xilma - xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Qadim - qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib kyeladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr - shafqat va bag'rikyenglikka da'vat etadi.

1. Bag'rikenglik— bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.
2. Bag'rikenglik yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.
3. Bag'rikenglik inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya ,va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqida bozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Hozirgi zamonda bu goya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal - azaldan diyorimizda islom , nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma - yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid , cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab , og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaga nidan dalolat beradi.

O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus

Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton xonim, AQSH sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga tashriflari vaqtida ta'kidlab o'tgan fikrlari bunga misoldir. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

“Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz” I.A.Karimov[3]

O'zbekiston Konstitutsiyasida , "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"(31-modda)[2] gi qonuning 4-moddasida “Dinga munosabatidan qat'i nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi” o'z ifodasini topgan . Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib ulug` va mushtarak g`oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan”,6-jild,Toshkent, “O`zbekiston” nashriyoti 1998-yil
2. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, Toshkent “O`zbekiston” nashriyoti 1997-yil
3. “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi" Toshkent, “O`zbekiston” nashriyoti 1998-yil